

Бугун ер юзида ижтимоий-сиёсий жараёнлар кескин тус олган бир пайтда Навоийнинг инсонларни огоҳликка чақирган — “Агар огоҳ сен — шоҳсен” сатрлари янада долзарб жаранглайди. Ёшлар онгида ҳаётга онгли муносабатни шакллантириш, тинч-осойишта ҳаётимизга хавф туғдирувчи мафкуравий хуружларга қарши турадиган қилиб тарбиялаш таълим-тарбиянинг муҳим вазифасидир.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, буюк мутафаккир Алишер Навоий ижоди моҳиятини инсоният тараққиётининг асосий омили бўлган умумбашарий қадриятлар, инсоният бахт-саодати, маърифатпарварлик, толерантлик, дўстлик масалалари ташкил этади. Бугун дунёда иқтисодий интеграция, глобаллашув, миллатларнинг кенг қамровли миграцияси, ижтимоий ўзгаришларнинг чуқурлашуви тезлик билан амалга ошмоқда.

Цивилизациянинг бундан кейинги тараққиёти ва ҳаётийлиги инсоният олдида турган энг муҳим ижтимоий-сиёсий, иқтисодий, экологик, маънавий-ахлоқий муаммоларни ҳал этилишига боғлиқ. Бу эса демократия, инсон ҳақ-ҳуқуқларини таъминлаш, қонун устуворлиги, ижтимоий адолат каби умумбашарий қадриятларга амал қилишни тақозо этади.

Бу ўринда умуминсоний маънавиятнинг ажралмас қисми бўлган Алишер Навоий ижодий меросини ўрганиш муҳим вазифадир. Буюк бобомизнинг инсоният бахт-саодати йўлида яратилган илмий-фалсафий

меросининг бугунги кун учун қанчалик аҳамиятли эканлигига эътибор қаратар эканмиз, умумбашарий муаммоларни ҳал этишга умумбашарий қадриятларни тиклаш ва ривожлантириш орқали эришилишини, ҳар томонлама уйғун ривожланган, фаол фуқаролик позициясига эга бўлган шахсларни камол топтириш инсоният тараққиётининг муҳим омили эканини яхши тасаввур этамиз.

Адабиётлар рўйхати

1. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
2. Е.Бертельс. Избранные труды. Москва: Наука, 1965.
3. Н.Комилов. Фақр нури порлаган қалб. Т.: Маънавият, 2001.

ALISHER NAVOIY G‘AZALLARIDAGI INSON BOSH QISM SOMATIZMLARINING INGLIZCHA VA RUSCHA TARJIMADA BERILISHI

Gadoyeva Mavlyuda

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Buxoro Davlat Universiteti, Ingliz tilshunosligi kafedراسи,

Annotatsiya: Ushbu maqola Alisher Navoiy g‘azallaridagi inson bosh qism somatizmlarining inglizcha va ruscha tarjimada berilishiga bag‘ishlangan.

Maqolada qo‘llanilgan somatizmlarning – inson tana a‘zolari nomining tarjimada berilishi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: g‘azal, somatizmlar, kiprik, mijgon, bosh, lab, og‘iz.

Annotation: This article is devoted to the English and Russian translations of the human body parts - somatizms in the lyrics of Alisher Navoi. In this article the translation of somatizms are analyzed.

Key words: lyrics, somatizms, eyelashes, head, lips, mouth.

Eski o'zbek tilida, she'riy ko'rinishda, aruz vaznida yaratilgan Alisher Navoiy g'azallarini asliyatga muvofiq tarjima qilish juda murakkabdir.

Shunday bo'lsa-da, shoir she'rlari bir qator xorijiy tillarga tarjima qilingan. Agar ularda qo'llanilgan somatizmlarning – inson tana a'zolari nomining tarjimada saqlanishi va berilishi maxsus kuzatilsa, ularning tarjimasi ham o'ziga xos xususiyatlar kasb etishi anglashiladi.

Shoir bir g'azalida shunday yozadi:

Ko'kragimdur subo'ning pirohanidin chokrok,

Kirpikim shabnam to'kilgan sabzadan namnokrok.¹

Baytda qo'llangan kiprik so'zi insonning bosh qismidagi a'zolaridan birining nomi bo'lib, ko'z qovoqlari chetida qator joylashgan tuklarni anglatadi.

Kiprik ko'rinishiga ko'ra quyuk yoki siyrak, uzun yoki kalta, qayrilma, o'siq, surmali tarzida sifatlanadi.

Eski o'zbek tilida "kiprik" so'zi metateza asosida, ya'ni tarkibidagi tovushlarning o'rnini almashtirish orqali "kirpik" tarzida talaffuz qilingan va ishlatilgan. Shuning uchun Navoiy g'azalida ham "kirpik" so'zi qo'llangan. Shoir kiprikni sabzaga (nozik niholga) o'xshatgan.

O'zbek tilida kiprik ishtirokida hosil bo'lgan iboralar ham mavjud. Bunga kiprik qoqmoq, kiprik qoqmaslik kabi iboralarni misol qilish mumkin.

Agar odam kipriklarini yumib-ochmay, ko'zi ochiq holda kipriklarini qimirlatmasdan biror narsaga diqqat bilan tikilib jim tursa, bu holat kiprik qoqmay turmoq deb yuritiladi.

Kiprik qoqmoq esa yuqori va quyi kipriklarini yummoq, yumib ochmoq holatini anglatadi.

Ba'zan kiprik so'zi o'rnida uning olinma sinonimi mijgon, mijja so'zlari ham qo'llanishi kuzatiladi. Shundan mijja so'zi ko'proq kiprik ostini anglatadi. Mijja qoqmaslik esa uyqusizlik, bedorlik, ko'z yummaslik ma'nolarini anglatib keladi.

Alisher Navoiy g'azalining keyingi misralarida takrorning oldini olish maqsadida kiprik so'zi o'rnida mujgon so'zini ishlatgan:

Uyla **mujgon** xanjarig'a yopishibdur durri ashk –

Kim, magar andin yatime yo'qturur bebokrok.

Yuqoridagi misralarni A.Sendik quyidagi ko'rinishda rus tiliga o'girgan:

Грудь моя окрававленной, чем рассветные небеса,

Ресницы мои влажней травы, на которой роса.

Ko'rinadiki, mutarjim ushbu baytni so'zma-so'z tarjima qilgan.

¹ Навоий Алишер. Кўкрагимдур... / Жаҳон адабиёти. Адабий-бадиий, ижтимоий-публицистик журнал. – № 3/226, 2016, март. – Б.3, 5, 6.

O'zbek tilidagi ko'krak so'zini rus tilida unga muqobil keladigan грудь, kiprik so'zini esa ресница so'zi bilan ifoda etgan. Buning natijasida ko'krak so'zining shoir qo'llagan yurak, dil tushunchasidagi ko'chma ma'nosi saqlanmagan.

Xuddi shu baytning inglizcha tarjimasini N.Qambarov quyidagicha amalga oshirgan:

My heart is torn like a dress of morning,
And my eye-lashes are wetter than the grass dew.

Baytning inglizcha tarjimasida ham so'zma-so'z tarjima usulidan foydalangan.

Tarjimon kipriklar so'zini eye-lashes so'zlari bilan ifoda etgan. Natijada asliyat bilan tarjimada qo'llangan so'zlarning tuzilishiga ko'ra ko'rinishi o'zgarishga uchragan.

Asliyatda qo'llangan sodda tub so'z tarjimada qo'shma so'z bilan o'rin almashgan.

Charx hajringda yaqindur **boshima** emrulg'ay
Ko'r nelar keltiradur **boshima** davron sensiz.¹

Alisher Navoiy ushbu baytida "Ayriliq shunday davom etadigan bo'lsa, yaqin kunlarda bu falak mening boshimga qulab tushsa kerak, ko'rgilki, bu davron boshimga sensiz ne kunlarni solyapti" demoqda.

Ushbu bayt N.Qambarov tarjimasida quyidagicha berilgan:
The heaven might fall on my **head** from the bitterness of parting
See, what will these days at last for me transmit without you.²

Yuqoridagi baytning ikki o'rnida bosh so'zi keltirilgan bo'lsa-da, uning ingliz tilidagi tarjimasida faqat bir o'rinda bosh so'zi **head** so'zi orqali ifoda etilgan.

Bu g'azalning ruscha tarjimasida esa xuddi shu bayt tushurib qoldirilgan. Buning natijasida esa mazkur g'azalning ham bayt qurilishiga, ham asosiy mazmun-mohiyatini ochib berilishiga zarar etkazilgan.

Bosh so'zi odam yoki hayvonlarning bo'yindan yuqorigi, oldingi qismini anglatadi. Shevada kalla so'zi unga sinonim sifatida ishlatiladi.

O'zbek tilida bosh so'zi ishtirokida hosil bo'lgan (boshi osmonga etmoq, boshi qotmoq, bosh ko'tarmoq, boshga tushmoq, boshga solmoq, boshiga yog'dirmoq, boshidan o'tkazmoq, boshdan kechirmoq va hokazo singari) qator iboralar mavjud.

Alisher Navoiy "Sensiz..." deb nomlangan baytida ulardan boshga tushmoq, boshga solmoq kabi ikkitasini ishlatgan. Ular ko'magida shoir lirik qahramonning ishq yo'lidagi iztiroblari va his-tuyg'ularini yuksak va betakror aks ettirishni ko'zda tutib, boshima emrulg'ay iborasini hayotda peshonasiga yozilgan taqdir (boshga tushmoq), boshga kelturmoq iborasini og'ir qiyinchilikka, azobga duchor qilmoq (boshga solmoq) ma'nosida qo'llagan.

Alisher Navoiyning "Ey ko'ngul..." deb nomlangan baytlarida lab, og'iz, bosh kabi somatik so'zlardan foydalanilgan.

Jumladan:

Men kimu no'shi **labing**dan istamak quti hayot,

¹ Навоий Алишер. Сенсиз.../ Жаҳон адабиёти. Адабий-бадий, ижтимоий-публицистик журнал. – Б.10.

² А.Навоий. Without you, 13 бет, № 12/236, 2016, декабрь)

Aylasa g'amzang sinoni qatl bu miqdor bas.
Ey ko'ngul, g'amgin esang ko'p, quysa soqiy **og'zingga**
Zarfni, sipqarmaguncha qilmag'il zinhor bas.

Yuz balo kelsa **boshingga** sabr qilg'il, ey ko'ngul,
Yo xaloyiq ixtilotni qil Navoiyvor bas.¹

Mazmuni: "Men kim bo'libmanki, sening labing bo'sasidan hayot ne'matini istasam! G'amzang meni qatl etsa, shu etarli.

Ey ko'ngil, agar qayg'uda bo'lsangu, sokiyo og'zingga may quysa, jomdagi may tugaguncha to'xtamasdan ichaver!

Ey ko'ngil, boshingga yuz balo kelsa ham, sabr qil yoki Navoiy kabi xaloyiqqa aralashib yurishni bas qil!"

Alisher Navoiy yashagan davrda lab so'zi dudoq, irm kabi hozirgi til uchun arxaik so'zlar sanaluvchi lug'aviy birliklar bilan sinonim (shakli har xil, ammo ma'nosi bir xil) sifatida teng ishlatilgan.

Lekin Navoiy poetik nutqida ko'pincha lab so'zining qo'llangani kuzatiladi. Shu baytning ruscha tarjimasida lab so'zi unga muqobil keluvchi gub so'zi bilan to'g'ri almashtirilgan esa-da, og'iz so'zi tushurib qoldirilgan. Asliyatdagi mavhum otdan iborat ko'ngil so'zi o'rnida aniq ot bo'lgan yurak so'zi qo'llanilgan:

Во мне нет дерзостной мечты коснуться **губ** твоих –

Твоей улыбки озорной – достаточною.

Пусть кравчий льет в бокал вино багровое –

Забыться влагою хмельной – достаточною.

Умер, о **сердце** Навои, свои стенания –

Боль обнажать перед толпой – достаточною.

Mazkur baytning ingliz tilidagi tarjimasida esa lab so'zi qo'llanilmagan.

"Ey ko'ngul" undalmasi "Oh my heart" ko'rinishida berilgan. Og'iz somatizmi mouth somatizmi bilan ifoda qilingan:

Oh my **heart**, if you are sad and a toastmaster

Will pour wine into your **mouth**.

Do not stop to drink up the wine till the last drop,

Oh my **heart**, be patient even if you have a lot of misfortune.

Or disconnect your relations with people like Navoi,

Therefore I can't say to my beloved to be faithful.

Ko'rinadiki, asliyatdagi "boshga balo kelmoq" iborasi ruscha va inglizcha tarjimalarda saqlanmagan.

Qolaversa, asliyatdagi "yuz" so'zi somatizm emas, balki miqdor tushunchasini bildiruvchi son so'z turkumidagi yuz raqamidir. Ular yozilishi bir xil, ammo ma'nosi har xil bo'lgan omonim so'zlar hisoblanadi. Keltirilgan baytda "yuz balo" ko'p balo ma'nosini anglatadi.

Navbatdagi baytda yuz so'zi somatizm sifatida e'tiborni tortadi. U orqali baytda "Yuzim ostonangni o'pay deb tuproqqa aylanib ketmish, holimga rahm qilib,

¹ Навоий Алишер. Хўблаб минг бўлсалар... // Жаҳон адабиёти. Адабий-бадний, ижтимоий-публицистик журнал. – № 2/225, 2016, февраль. – Б.3, 5, 6.

shuncha ranjimga bir muruvvat ko'rsat, bu ranjlarimni behudaga chiqarma" mazmuni ifoda etilmoqda:

Tufrog' o'lmish, men qo'yay deb osmonbo'sungg'a yuz,
Holima rahm aylabon qilma bu ranjimni habo.¹

Ammo shu baytning ruscha tarjimasida yuz so'zining saqlanmaganini kuzatish mumkin:

Я стал бы прахом, лишь порог мне твой поцеловать,
О, сжался сделай для меня, стоб миг такой настал.

Lekin xuddi shu baytning inglizcha tarjimasida yuz so'zi saqlangan bo'lib, o'ziga mos muqobili face so'zi bilan berilgani ko'zga tashlanadi:

My face turns into dust when I want to kiss your threshold,
be merciful, be generous, and do not make me angry for nothing.

Agar o'zbek tilida lab somatizmi ikki bor takror qo'llanib, "labolab" ko'rinishida ishlatilsa, idishning labi, unga suyuqlik solish me'yori va chegarasini anglatib keladi. Bunga Alisher Navoiy ijodidan quyidagi baytni misol qilish mumkin:

Do'stluq aylab tutung gah-gah **labolab** jomkim,
Qaysi jon qilmish manga dardi xumor, ey do'stlar.²

"Ey do'stlar, do'stlik ko'rsatib, menga har dam labigacha may bilan to'la jomni bering, chunki xumor dardi jonimga qasd qilyapti" mazmunidagi ushbu bayt rus va ingliz tillariga quyidagicha tarjima qilingan:

Прошу вас, содвиньте фиалы с вином, пожалейте меня,
Я **полон безмерною** жаждой – и неуголенной – друзья!
Inglizchasi:

Be my friend and from time to time put a glass into my mouth,
Craving tries to assassinate myself sans satisfaction, hey friends.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilida inson bosh qismi a'zolarining nomlarini ifodalab keluvchi lug'aviy birliklar alohida o'rin tutadi. Ular til va nutqda konnotativ yoki denotativ ma'nolarda qo'llanilib kelishi tufayli tarjima jarayonini murakkablashtiradi.

Adabiyotlar:

1. Азимова М.Н. Сопоставительный анализ соматической лексики и фразеологии таджикского и английского языков: Дисс. . канд. филол. наук. - Ленинабад, 1980. - 184 с.
2. Гандалоева А.В. Фразеологические единицы с компонентами "голова" и "сердце" в ингушском языке в сопоставлении с английским: Афтореф. дисс. канд. филол наук. – 2013.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 1-jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – B.495.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 4-jild. Tartibot- SHukr. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 606 b.

¹ Навоий Алишер. Бедилинг хайрли Русул. // Жаҳон адабиёти. Адабий-бадий, ижтимоий-публицистик журнал. – № 7/230, 2016, июль. – Б.3, 6, 7.

² Навоий Алишер. Эй дўстлар... // Жаҳон адабиёти. Адабий-бадий, ижтимоий-публицистик журнал. – № 8/231, 2016, август. – Б.3-6.

5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. 5-jild. – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – B.127.

MUAMMOLI VAZIYAT ASOSIDA TALABALARGA TASAVVUF TA'LIMOTINI O'RGATISH YO'LLARI

**Allaberdiev Alijon-
O'zbek tili va adabiyoti fakulteti dekani
Farhod Nizomov – NavDPI,
O'zbek adabiyoti kafedrası o'qituvchisi**

Bugungi kunda ta'lim dargohlarida kamol topayotgan yoshlarga yangicha qarash, o'zgacha yondashuv asosida bilim berish muhim vazifa hisoblanadi. Tarbiyaga yangicha pedagogik tafakkur nuqtayi nazaridan yondashish orqali ularda sifatli bilim, dars samaradorigi, o'rganuvchining qiziqishi ortishi, umuminsoniy fazilatlarining kamol topishi kabi ko'nikmalar yuzaga keladi. Shu jihatdan, ajdodlarimiz uzoq yillardan beri e'zozlab kelayotgan, turkiy xalqlar madaniy merosi bo'lgan tasavvuf g'oyalari, tasavvufiy qarashlarni o'rgatish, yoshlar ongida tasavvufiy axloqni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Zero, “Tasavvuf – muomala madaniyati. U til va dil yumshoqligiga, o'zgalardan keladigan ranj-u ozorlarni ham halimlik bilan, g'azab va adovat pichog'iga sira qo'l cho'zmasdan bartaraf etishga o'rgatadi. Tasavvuf ahlining nodir axloqi go'zal fazilatlarga boy”¹ Tasavvuf ta'limotini o'rganish, unda ilgari surilgan islomiy aqidalar mazmun-mohiyatini shuurlarga singdirish insonni ma'nan yuksaltiradi, komillik sari boshlaydi. U asrlar osha ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotga, ma'naviy-ma'rifiy, adabiy jarayonga faol ijobiy ta'sir ko'rsatib keldi.

Mustaqillik tufayli tasavvuf ta'limotini o'rganish, mohiyatini anglash, hayot tarzimizga chuqur singdirishga keng imkoniyat yaratildi. Bizga boy ma'naviy meros qoldirgan tasavvuf ta'limoti olimlari-buyuk bobolarimiz hayoti, ijodiy faoliyatini o'rganishga kirishildi, asarlari qayta-qayta nashr etildi. Mamlakatimizning deyarli barcha oliy o'quv yurtlarida tassavuf adabiyoti, uning atoqli namoyondalari asarlari, tassavvufiy madaniyatning o'ziga xos qirralari, ijodkorlar asarlarida ilgari surilgan turli g'oya va qarashlar alohida o'rganilmoqda. Bu borada talablarga chuqur bilim berilmoqda. Xalqimiz o'zining tarixi, boy ma'daniyati, jahon pedagogikasiga munosib ulush bo'lib qo'shilgan islomiy qadriyatlarini, xususan, tasavvuf ilmi namunalariga ega. Ular esa badiiy adabiyotda o'z ifosadisini topgan. Tasavvuf sohiblari o'z qarash-larini yetkazishda adabiyotdan foydalanganlar.

¹Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va she'riyat. T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. 1991- yil. 5-bet.